

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNVERSITETI

SAPAYEV MAXSUDBEK KARIMOVICH

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING
IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Xorazm viloyati misolida)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Economical Sciences**

Sapayev Maxsudbek Karimovich

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida)..... 3

Сапаев Махсудбек Каримович

Совершенствование экономических-экологических механизмов устойчивого развития экономики региона (на примере Хорезмской области)..... 31

Sapayev Maxsudbek Karimovich

Improving economic and environmental mechanisms for sustainable development of the regional economy (using the example of the Khorezm region) 61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 65

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNVERSITETI

SAPAYEV MAXSUDBEK KARIMOVICH

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING
IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Xorazm viloyati misolida)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5190 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Burxanov Aktam Usmanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxtiyor Ruzmetov
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xalmurotov Fozil Saribayevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat _____: _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "____" _____dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida global iqlim o'zgarishlari ta'sirining ortishi bevosita atrof-muhit va ekologiya bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, 2023-yilda tabiiy ofatlar 280 milliard dollarlik iqtisodiy yo'qotishlarga olib keldi, bu avvalgi 10 yillik o'rtacha 89 milliard dollardan yuqori¹. Iqlim o'zgarishi bugungi kunda global tahdidga aylanib bormoqda bu esa dunyo davlatlarida geosiyosiy ziddiyatlarni kuchayishiga olib kelmoqda. Iqlim muammolari borasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi (COP 29) doirasida ko'tarilgan masalalar qatorida Parij bitimida belgilangan asosiy maqsadlardan biri – mintaqada havo haroratining jadal o'sishiga yo'l quymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 °C atrofida saqlab qolish lozim. Davlatlar oldida iqlim o'zgarishiga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish va barqaror rivojlantirish asnosida mintaqalarning iqtisodiy-ekologik muammolarini tadqiq qilishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Global isish yer atmosferasidagi issiqlikni ushlab turadigan karbonat angdrid (CO₂) va boshqa issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi natijasida yer yuzasida issiqxona samarasining ortib borishi, so'ngi o'n yillikda kuzatuvlar natijasida issiqlik o'rtacha haroratda 1,55 daraja issiq bo'ldi, bu holat esa mintaqalarda iqtisodiy-ekologik muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda². Mintaqaviy jihatdan iqtisodiyotning tarmoq va sohalari rivojiga ta'sir qilayotgan iqlim o'zgarishlarining oqibatlarini yumshatish, mintaqalarda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxonalarini "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida sanoatni qayta modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, mintaqa sanoat korxonalarini faoliyatiga "Yashil sertifikatlar" bozorini rivojlantirish hamda "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish, mintaqalarni barqaror rivojlantirishga ta'sir qiluvchi iqtisodiy-ekologik omillar ta'sirini hisobga olgan holda mintaqalarni rivojlantirish borasida ilmiy-tadqiqotlarni izchil davom ettirishni talab etadi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi mintaqaviy muammolarga yechim topish maqsadida respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish, biologik xilma-xillikni saqlash, atmosfera havosi ifloslanishini oldini³ olish kabi maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni nazorat qilish, tashqi va ichki ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va unga huquqiy choralar ko'rish mexanizmini takomillashtirishdan iborat. Mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan sanoat tarmoqlari atrof-muhitga va ekologiyaga jiddiy zarar keltirmoqda. Biroq, bu zarar ta'siri bugungi avlodga ham ham keyingi avlodga ham o'z ta'sirini ko'rsatishini hech kim baholagani yo'q. Shu jihatdan, respublikamiz mintaqalari iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan birga iqtisodiy-ekologik masalalarga ham alohida e'tibor

¹ <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2024-01.html>

² Всемирная метеорологическая организация (ВМО). <https://wmo.int/ru/media/news>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

qaratishni talab qiladi, mintaqaviy ekologik xavfsizlik choralarini ko'rish, ishlab chiqarishni mintaqaviy rivojlantirish bilan birga ekologik muvozanatni ta'minlash yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi PQ-132-son "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar) larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son "Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 04-apreldagi 154-son "2022-2026 yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlari va mintaqaviy jihatdan qabul qilingan qaror va farmoyishlar hamda sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari G.C. Daily, P.A. Matson, H.E. Daly, P. Krugman, Tietenberg, Tom and Lynne Lewis, Herman E. Deyli⁴ kabi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari tomonidan mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik masalalari A.A.Adamenko, V.M.Dubel, Yu.A.Olenicheva, O.L.Zakotnyuk, A.G.Granberg, V.V.Kistanov, N.V.Kopilov, O.V.Kolomyuchenko, A.V.Nikolaeva, G.G.Fetisov, V.P.Oreshin, V.D. Shornikov⁵lar tomonidan tadqiq qilingan.

⁴ Daily G.C., Matson P.A. Ecosystem services: From theory to implementation //Proceedings of the national academy of sciences. – 2008. – T. 105. – №. 28. – S. 9455-9456.; Daly H. E. Ecological economics and sustainable development. – Edward Elgar Publishing, 2007.; Krugman P. Geography and Trade, Cambridge MIT Press, 1991 y. 156 page.; Tietenberg, Tom and Lynne Lewis. Environmental and Natural Resource Economics, (11 th Edition). Publisher: Routledge, 2018.; Herman E.Deyli. Ecological economics and sustainable development. // Edward Elgar Publishing. I. Title. 2007. 280-pages.

⁵ Адаменко А.А. Ресурсы субъектов малого и среднего бизнеса в развитии региональной экономики: условия кризиса модели роста: монография / А.А.Адаменко. – Новосибирск: Из-во ЦРНС, 2016. - 162 с.; Дубель В.М.,

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini rivojlantirish borasida Q.Abirqulov, T.Jumaev, A.E.Ishmuxamedov, N.Q.Aimbetov, A.Burxanov, K.Raxmatov, A.S.Soliev, E.A.Axmedov, A.A.Nizamov, F.O.Nasretdinova, X.Z.Zaripov, M.R.Raximova, M.T.Adilovalar⁶ tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning tadqiqotlari mintaqa va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, raqobatbardoshlik masalasi, mintaqaga investitsiyalarni jalb qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchi olimlar mazkur muammo doirasida tadqiqotlar olib borishgan. Biroq, ilmiy-tadqiqot ishlarida mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy masalalariga ko'proq e'tibor qaratilgan, biroq, mintaqani barqaror rivojlantirishda iqtisodiy-ekologik nuqtai-nazardan rivojlantirish, mintaqaning atrof-muhit va ekologik masalalari doirasida alohida hududiy yondashilmagan.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasini № I-2014-1-18 "Mintaqada innovatsion ishlanmalarni tadbiq etish asosida qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mintaqani iqtisodiy-ekologik rivojlantirish xususiyatlarining ilmiy mohiyatini ochib berish;

Оленичева Ю.А., Закотнюк О.Л. Региональная экономика: учебное пособие / В.М.Дубель, Ю.А.Оленичева, О.Л.Закотнюк. – Донецк: ГОУ ВПО «Дон НУ», 2021, - С.7; Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М.: ГУВШЭ, 2000, 13-15 стр.; Калюжнова Н.Я. и др. Конкурентоспособность регионов: теоретико-прикладные аспекты. Коллект. моног. / Под ред. Ю.К.Перского ва Н.Я.Калюжной. – М.: ТЕИС (МГУ), 2003, 8-15 стр.; Кистанов В.В., Копылов Н.В. Региональная экономика России: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2011. – 8-12 стр.; Коломюченко О.В. Стратегическое планирование развития регионов Россия: методология и организация. Санкт-Петербург.: Наука, 2003. 10-18 стр.; Николаева А.В. Региональная экономика. <https://cyberleninka.ru/article/n/regionalnaya-ekonomika/viewer>; Фетисов Г.Г., Орешин В.П. Региональная экономика и управление: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 8-12 стр.; Шорников В.Д. О природных объектах, природных ресурсах и праве собственности. Ж// Сибирский юридический вестник. №4(35) 2006. 56-63 стр.

⁶ Abirqulov Q., Adilova M. Iqtisodiy barqaror rivojlanish va atrof muhit muhofazasi muammolari//O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. Toshkent. 32-jild, 2008y. 63-бет; Т.Ж.Жумаев. Экология иктисодиёти: назария ва амалиёт. – Т.: IQTISODIYOT, 2014. – 52-53 бетлар.; А.Э.Ишмухамедов, М.Р.Рахимова, Л.А.Ишмухамедова. Минтақавий иктисодиёт. Дарслик. – ТДИУ. 2007. – 6-9 бетлар.; Aimbetov N.Q. Murakkab ekologik sharoitda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: TDIU. 2000. 17-b.; А.Бурханов, К.Рахматов. Минтақавий иктисодиёт. Ўқув қўлланма. Т.: 2019. 9-12 бетлар.; А.С.Солиев, Э.А.Ахмедов, Р.Й.Махамдалиев, М.И.Назаров, З.Н.Тожиева, М.Ж.Болтаев, У.Атажанова. Минтақавий иктисодиёт. Ўқув қўлланма. "Университет" нашриёти. Т.: 2003. 8-11 бетлар.; А.А.Низамов. Mintaqa iqtisodiyotini tarkibi jihatdan takomillashtirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida) i.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: O'zMU, 2021. – 58 бет.; F.O.Nasretdinova. Mintaqada ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. i.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Urganch, 2024. – 64 бет.; X.Z.Zaripov. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari (Xorazm viloyati misolida). i.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Urganch, 2024. – 60 бет.; М.Р.Рахимова. Минтақа ва маҳаллий хўжалик иктисодиёти. – Ўқув қўлланма. -Т.: ТДИУ, 2004. – 96-97 бетлар.; Adilova M.T. O'zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlarini. i.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 54 бет.

mintaqada tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy-ekologik rivojlanishga ta'sirini baholash;

mintaqalarni iqtisodiy-ekologik rivojlantirishning konseptual jihatlarini asoslash;

hududlarni iqtisodiy-ekologik rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash;

mintaqada ekologik vaziyatni baholashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ijobiy xususiyatlarini asoslab berish;

mintaqdagi iqtisodiy-ekologik vaziyatni anketa-so'rovnomalari asosida ekspert baholash uslubiyotini takomillashtirish;

ekonometrik modellardan foydalanish asosida hududiy iqtisodiy-ekologik muammolarni hisobga olgan holda barqaror rivojlantirishning prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston hududlari, shuningdek, Xorazm viloyati tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini mintaqaviy jihatdan hududlarning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish asosida iqtisodiy-ekologik rivojlantirish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar davomida tizimli tahlil, sintez, ekonometrik tahlil, statistik guruhlash va taqqoslama tahlil, geografik axborot tizimlari (GAT), ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida hududlarda mavjud korxonalarni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonini tezlashtirish, yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalash amaliyotini tezlashtirish, ekologiyaga zarar keltirayotgan sanoat korxonalari uchun xalqaro ISO-14001 standartini joriy qilish mexanizmi takomillashtirilgan;

Xorazm viloyatini hududiy jihatdan ekologik barqarorligini baholash darajasining yangi shkalalari $[1,0 < \text{EMD kam muam} \leq 3,0]$, $[4,0 < \text{EMD o'rta muam} \leq 5,0]$, $[6,0 < \text{EMD ko'p muam} \leq 7,0]$, $[8,0 < \text{EMD juda ko'p muam} \leq 9,0]$ asosida takomillashtirilgan;

hududdagi iqtisodiy-ekologik vaziyatni baholash maqsadida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasini Konkordatsiya koeffitsienti bo'yicha ekspert baholash borasida miqdoriy chegara mezonlarining $(0,2 \leq W \leq 1,0)$ qiymatlarning maqbul darajalari aniqlangan;

Xorazm viloyatining iqtisodiy-ekologik rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning 2030-yilga qadar o'rta muddatli prognoz senariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mintaqani barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini joriy qilinishi, hududiy sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish talabini belgilaydi, ekologiya keltirayotgan zararlarini baholash orqali iqtisodiy zarar chegaralarini aniqlaydi;

hududlarda sanoat korxonalarining ekologik talablarga javob berishi maqsadida yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash amaliyotiga o'tish hamda bu borada xalqaro standartlarni joriy qilishning afzalligi aniqlangan;

hududlarning ekologik vaziyatini aniqlash va baholash maqsadida geografik axborot tizimi texnologiyalari asosida interaktiv xaritalar tavsiya etilgan va ulardan foydalanish samaradorligi asoslab berilgan.

“Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti”, “Yashil iqtisodiyot”, “Ekologik xavfsizlik”, “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Ekologiya” va boshqa fanlarni o'qitishda hamda turli o'quv kurslarini tashkil etishda foydalanish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi, ularning rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi, muhim ilmiy xulosalarni asoslashda zamonaviy ekonometrik modellardan foydalanilganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil etilganligi, tegishli xulosalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalardan mintaqani barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilishda amal qiladigan umumiy qonuniyatlari va o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlarini ochib berishda metodologik yondashuvlarni kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mintaqalarning ekologik murakkab sharoitda barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishga qaratilgan metodologik ishlanma va amaliy tavsiyalar hukumat va mahalliy hokimiyat, tegishli mutasaddi tashkilotlar tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida tabiiy resurslardan oqilona va maqbul darajada foydalanish zaruriyatini yuklaydi, istiqbolli rivojlanishini ta'minlab beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqani barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari ta'sir etuvchi omillar sifatida hududlarda mavjud korxonalarni modernizatsiya va diversifikatsiyalash jarayonini tezlashtirish, yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalash amaliyotini tezlashtirish, ekologiyaga zarar keltirayotgan sanoat korxonalarini uchun xalqaro ISO-14001 standartini olish taklifi Xorazm viloyati ekologiya boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligi mahkamasining 2025-yil 10-maydagi 7-1717-son ma'lumotnomasi). Natijada mintaqani barqaror rivojlantirishining iqtisodiy-ekologik muammolarini o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish hamda strategik hududiy dasturlarni ishlab chiqishga yordam bergan;

Xorazm viloyatini hududiy jihatdan ekologik barqarorligini baholash darajasining yangi shkalalari $[1,0 < \text{EMD kam muam} \leq 3,0]$, $[4,0 < \text{EMD o'rta muam} \leq 5,0]$, $[6,0 < \text{EMD ko'p muam} \leq 7,0]$, $[8,0 < \text{EMD juda ko'p muam} \leq 9,0]$ asosida

baholash taklifi Xorazm viloyati ekologiya boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligi mahkamasining 2025-yil 10-maydagi 7-1717-son ma'lumotnomasi). Natijada Xorazm viloyatining ekologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarini o'z vaqtida aniqlash va vaziyatni samarali baholashga imkon bergan;

hududdagi iqtisodiy-ekologik vaziyatni baholash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijasini Konkordatsiya koeffitsienti bo'yicha ekspert baholash borasida miqdoriy chegara mezonlarining ($0,2 \leq W \leq 1,0$) qiymatlarning maqbul darajalari bo'yicha taklifi Xorazm viloyati ekologiya boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligi mahkamasining 2025-yil 10-maydagi 7-1717 - son ma'lumotnomasi). Natijada Xorazm viloyatining iqtisodiy-ekologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan omillarni 15,0 foizgacha pasaytirishga imkon yaratgan;

Xorazm viloyatining iqtisodiy-ekologik rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning 2030-yilga qadar o'rta muddatli prognoz senariylari bo'yicha taklifi Xorazm viloyati ekologiya boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligi mahkamasining 2025-yil 10-maydagi 7-1717-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyatni iqtisodiy-ekologik rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha prognoz senariylarining ishlab chiqilishi va o'rta muddatli davrlardagi istiqbol ko'rsatkichlarning o'zaro muvofiqligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK e'tirof etgan milliy jurnallarda 4 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzulishi vaa hajmi. Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti asoslangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining sinovdan o'tishi yoritib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini iqtisodiy-ekologik rivojlan-tirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mintaqani iqtisodiy-ekologik rivojlantirish xususiyatlari va uning ilmiy-amaliy ahamiyati, mintaqada tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy-ekologik rivojlanishga ta'sirini baholash hamda barqaror rivojlanish sharoitda mintaqalarni iqtisodiy-ekologik rivojlantirishning huquqiy asoslari va konseptual jihatlari o'rganilgan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, dunyo mamlakatlari oldida turgan dolzarb masalalardan biri mintaqa iqtisodiyotini ustuvor darajada rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiyotga erishishni ta'minlashdir. Shu bois, mintaqa iqtisodiyotini iqtisodiy va ekologik rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq qilish davr talabiga aylandi. Barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim fundamental jihatlardan biri mintaqa iqtisodiyotini ustuvor rivojlantirishga doimiy e'tibor qaratishi lozim.

Dastlab tadqiqotimiz oldiga quyilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mintaqaviy iqtisodiyotning iqtisodiy-ekologik xususiyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganishga qaror qildik. Mintaqaviy iqtisodiyot fanini rivojlantirishga hissa qo'shgan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirgan izlanishlarning nazariy-uslubiy jihatlari borasida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.



1-rasm. Muammoli hududlarning tabaqalanishi va uning tavsifi⁷

⁷ Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni tadqiq qilish asosida tuzilgan.

Mintaqa tushunchasini ilmiy jihatdan izohlash maqsadida turli iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan har bir hududning o'ziga xos rivojlanish tarixi va geografik joylashuvi, madaniy merosi, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanish dinamikasini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shu jihatdan, hududlarning tabiiy geografik jihatdan joylashuvi hamda tabiiy resurs zahiralariга egaligi mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Har bir mintaqaning iqtisodiy jihatdan rivojlanish salohiyati bevosita hududning sanoat tarmoqlari va qulay infratuzilma hamda xizmatlar hajmini oshirish sur'atlari bilan baholanadi.

Izlanishlarimiz natijasida tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda sohaga tegishli adabiyotlarni o'rganish orqali bugungi kunda barcha mintaqalar rivojiga ta'sir etayotgan omillar mavjudligi o'z isbotini topdi. Xususan, muammoli hududlarning tabaqalanishi nuqtai-nazardan oltidan iborat, ya'ni: rivojlanishi orqada bo'lgan hududlar; iqtisodiy deprezziya holatida bo'lgan hududlar; ekologik xavfli hududlar; yangi tashkil etilgan chegaraviy hududlar; milliy, diniy, etnik nizoli hududlar hamda ekstremal tabiiy sharoitda sanoatni rivojlantirayotgan hududlar. Bevosita ushbu toifadagi hududlarning tavsifi batafsil keltirib o'tilgan (1-rasm).

1-jadval

Mintaqada tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy-ekologik rivojlanishga ta'sirini baholashning asosiy mezonlari⁸

№	Iqtisodiy-ekologik ta'sir etuvchi mezonlar	Baholash ko'rsatkichlari	Ta'riflari
1.	Iqtisodiy ta'sirlar	<i>Resurslardan foydalanish va iqtisodiy o'sish</i>	Mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanish iqtisodiy o'sishga olib kelishi mumkin. Misol tariqasida, tog'-kon sanoati yoki qishloq xo'jaligi tarmoqlarida tabiiy (mineral, suv, yer) resurslar ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi va bu iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.
		<i>Mehnat resurslari va ish o'rinlari</i>	Mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanish va uni ishlatishda yangi ish o'rinlarini yaratadi, biroq bu o'rinlar vaqtincha va resurslar yakunlanishi bevosita iqtisodiy inqirozga olib keladi.
		<i>Raqobatbardoshlik va innovatsiyalar</i>	Mintaqalarda resurslarni samarali boshqarish bevosita iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish mumkin, biroq, resurslardan foydalanish nobarqaror bo'lsa, bu uzluksiz o'sish xavf tug'diradi.
2.	Ekologik ta'sirlar	<i>Atrof-muhitga zarar</i>	Mintaqalarda tabiiy resurslardan me'yordan tashqari foydalanish atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rastishi mumkin. Misol tariqasida, me'yordan ortiq yer resurslarini qazib olish, o'rmonlarni kesish, suv resurslarini me'yordan tashqari sarflash ekotizimlarga zarar yetkazadi. Bu holat tuproq eroziyasi, suv tanqisligi va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga sabab bo'ladi.
		<i>Ekologik tiklanish</i>	Mintaqalarda tabiiy resurslardan qayta tiklanadigan tarzda foydalanish, (misol tariqasida, ekologik qishloq xo'jaligi yoki barqaror turizm) atrof-muhitni himoya qilishi va iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.
		<i>Iqlim o'zgarishi</i>	Mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanish, xususan energiya resurslaridan nosamarasiz foydalanish iqlim o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Issiqxona gazlarini emissiya qilinishi bevosita atmosferada to'planib, global isish jarayonini kuchaytiradi.
3.	Ijtimoiy ta'sirlar	<i>Yashash sharoitlari</i>	Mintaqalarda resurslardan barqaror foydalanish jamiyatning yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi, xususan, mintaqalarda suv, energiya, gaz ta'minotining yaxshilanishi orqali erishiladi.
		<i>Ijtimoiy notenglik</i>	Mintaqalarda resurslardan foydalanishning ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirish mumkin, ayniqsa resurslar notekis taqsimlansa. Kichik

⁸ Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni tadqiq qilish asosida tuzilgan.

			qishloq xo'jaliklari va aholining oz miqdordagi qatlamlari resurslardan foydalanishda cheklovlar bo'lishi mumkin.
4.	Indikatorlar va uslubiyot	<i>Iqtisodiy indikatorlar</i>	Mintaqalardagi iqtisodiy o'sish, ishsizlik darajasi, daromadlar, soliq daromadlari va eksport salohiyati kabi ko'rsatkichlardan iborat.
		<i>Ekologik indikatorlar</i>	Mintaqalarda ekologik barqarorlikga ta'sirni o'lchash, misol tariqasida uglerod (karbon izlari), suv resurslarining sarfi, o'rmonlarni kesilish darajasi va biologik xilma-xillik holatini baholash.
		<i>Ijtimoiy indikatorlar</i>	Mintaqalarda yashash sharoitlari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi rivojlanish ko'rsatkichlari, ijtimoiy farovonlik darajasini baholash.

Mintaqaviy jihatdan tabiiy resurslar o'ziga xos darajada tugaydigan va tugamaydigan resurslarga bo'linadi. Tugaydigan resurslar ham o'z navbatida qayta tiklanadigan (yer resurslari) va qayta tiklanmaydigan (suv va biologik) resurslarga bo'linadi. Tugamaydigan resurslar (iqlimiy, quyosh va shamol energiya) resurslariga bo'linadi. Demakki, har bir mintaqa o'zida mavjud resurslardan oqilona foydalanishi hamda resurslar taqchilligini oldini olish muhim ahamiyatga ega. Mintaqada tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy-ekologik rivojlanishga ta'sirini baholash asosiy to'rtta asosiy mezonga bo'lingan holda o'rganish muhim ahamiyatga ega, xususan: iqtisodiy ta'sirlar; ekologik ta'sirlar; ijtimoiy ta'sirlar; indikatorlar va uslubiyot (1-jadval).

Darhaqiqat, mintaqada tabiiy resurslardan foydalanishda iqtisodi, ekologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish, mintaqa aholisi va ishlab chiqarish faoliyatida samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, har bir mintaqa hududiy dasturlar va "Yo'l xaritalar" ini tayyorlayotganda shu kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Jahon miqyosida mintaqani barqaror rivojlanishini tahlil etishda iqtisodiy-ekologik vaziyatning miqdoriy baholash dolzarb ahamiyatga ega. Yevropa hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida barqaror rivojlanish konsepsiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, barqaror rivojlanish indikatorlarining doimiy monitoringi amalga oshiriladi. BMT ning barqaror rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (UNCSD), Yevropa hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va Yevrostat tashkilotlari tomonidan barqaror rivojlanish indikatorlarini aniqlash mezonlari ishlab chiqilib, bunda barqaror rivojlanishning 47 ta indikatorini belgilab berildi.

Mamlakatimizda ham atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq faoliyatda ekologik indikatorlardan 2005-yildan beri foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining BMT rivojlanish dasturi bilan hamkorlikda tabiiy muhit holatining nazoratini amalga oshiradigan asosiy vazirliklarini jalb qilgan holda "O'zbekistonda atrof-muhit holatining monitoringini o'tkazish uchun ekologik indikatorlar" loyihasi ishga tushirildi.

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan ta'kidlab o'tilganidek, "Ayni paytda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini muayyan mezonlar asosida baholashga davriy va uzluksiz tus bermog'imiz darkor. Jumladan, barqaror va mutanosib iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiy islohotlar samaradorligini hisobga olish va

yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta‘minlashga alohida e‘tiborni kuchaytirish zarur”⁹.

Darhaqiqat, mintaqaviy jihatdan hududlarni barqaror darajada rivojlantirishda ustuvor jihatdan e‘tibor qaratilishi kerak bo‘lgan masalalarga quyidagilar kiradi:

hududlarning iqtisodiy rivojlanishida qulay investitsion muhitni shakllantirish va investitsion imkoniyatlarni kengaytirish;

hududlarning sanoat salohiyatini o‘rganish asosida yangi korxonalarni tashkil etish borasida hududiy dasturlarni ishlab chiqish;

hududlarda mavjud sanoat korxonalari faoliyatini kengaytirish va diversifikatsiyalash orqali aholini ish bilan ta‘minlash choralarini ishlab chiqish;

hududlarning aholi bandligini oshirish maqsadida xizmatlar sohasiga e‘tiborni kuchaytirish;

hududlarning tabiiy ekotizimini saqlash va hududiy turizm salohiyatini oshirish choralarini ko‘rish;

hududlarning agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish;

hududlarda “Yashil” bog‘lar va aholi farovonligiga xizmat qiladigan infratuzilma obyektlariga e‘tibor qaratish;

hududlarning atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha Davlat dasturlarini ishlab chiqish va boshqalar.

Muallif tadqiqotlari asosida “mintaqaviy ekologik siyosat” tushunchasining mazmuni mintaqaviy darajada mamlakatning turli hududlaridagi ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, hududiy iqlim sharoitlarini hisobga olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik ko‘rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan O‘zbekiston Respublikasi mintaqalarining iqtisodiy-ekologik rivojlanish ko‘rsatkichlari hamda Xorazm viloyatining ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy-ekologik jihatdan rivojlanish holati tahlil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bugun mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o‘zining salmoqli o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Respublikamiz Prezidentining olib borayotgan odilona siyosatini bugun dunyo davlatlari e‘tirof etmoqda. Shuningdek, mamlakatni rivojlantirish borasida uzoq yillik strategiyalarni qabul qilinishi hamda davlat dasturlarining ishlab chiqilishi yurtimizni har tomonlama barqaror rivojlanishini ta‘minlab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi qabul qilingan farmonini 92-93-maqsadlariga ko‘ra: “Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi

⁹ Sh.M.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2023 y. 165-bet.

davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, mintaqa bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini ko'paytirish hamda mamlakatimizga investitsiyalar oqimini oshirish" kabi ustuvor maqsad va vazifalar belgilab berildi¹⁰.

Ushbu farmonda belgilangan ustuvor maqsadlar va vazifalarni amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonni o'rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish imkonini yaratish ko'zda tutilgan. Bunda, mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda mintaqalar ulushini oshirish kabi maqsadlarga erishish asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Jumladan, "O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq 2030-yilga borib, YaIM hajmini 160 milliard dollardan, aholi jon boshiga YaIM ni 4000 dollardan oshirish maqsad qilingan bo'lib, bunda fiskal taqchillikning YaIM ga nisbatan 2024-yilda 4 %, keyingi yillarda 3 % dan oshirmaslik, inflyatsiya darajasini target (5-6 %) darajada saqlash, eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish vazifalari belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda 2024-2026 yillar uchun mo'ljallangan davlat byudjeti parametrlariga ko'ra, mazkur strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali YaIM ni hajmi 2024-yilda o'rtacha 6,2 % dan o'sib, 2026-yilga borib 1 726 trln.so'mni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda¹¹.

Bugungi kunda mintaqalarni iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

mintaqalarning yalpi hududiy mahsulotlari hajmini oshirishda Davlat dasturlarini ishlab chiqish va uni monitorigini tashkil qilish;

mintaqalarda yirik sanoat tarmoqlari korxonalarini tarkibida ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;

mintaqalarda erkin iqtisodiy zonalarga berilayotgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish, investitsion oqim darajasiga qarab imtiyozlarni kengaytirish va soliq preferensiyalari orqali rag'batlantirish;

mintaqalarda kichik sanoat zonalarida yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion loyihalarni amalga oshirish masalalariga e'tibor qaratish;

mintaqalarda iqtisodiy maqsadda foydalanilmayotgan ko'chmas mulk obyektlarini samarali innovatsion va investison loyihalar doirasida ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlariga uzoq muddatga foydalanishga berish;

mintaqalarda qishloq xo'jaligi korxonalarini, xususan fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash orqali eksportga tayyor turdagi mahsulotlar chiqarish hisobiga valyuta oqimini ko'paytirish;

mintaqalar sanoat korxonalariga yangi innovatsion va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish mexanizmini takomillashtirish.

Mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish holatini tahliliy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, respublika YaIM ning o'sish sur'atlari, mintaqalarda YaHM ning o'sish ko'rsatkichlari tahlili, ishlab chiqarish

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

¹¹ Makro-fiskal xatarlar sharhi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoboti. 2024, 43-bet.

sanoati korxonalari, xom ashyo va tabiiy resurslardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarishni texnik-texnologik shakllanganligi, mintaqalarni iqtisodiy-ekologik va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahliliy jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Har bir mamlakatning mintaqaviy jihatdan rivojlanishi belgilab beradigan ko'rsatkich bu YaIM va uning o'sish sur'ati bilan ifodalanadi. Shu bois, biz bevosita tadqiqotimizda dastlab, Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining o'sish sur'ati bo'yicha ko'rib chiqishni ma'qul topdik. YaIM ning o'sish hajmi bo'yicha tahlillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2024-yilda 1454574,0 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, 2010-yilga nisbatan 1375637,4 mlrd.so'mga ortganligini ko'rish mumkin.


2-jadval

O'zbekiston Respublikasi Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining dinamik o'zgarishi, mlrd.so'm¹²

YAIM	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2022 y.	2024 y.	2024 yilni 2010 yildan farqi (+;-)
O'zbekiston Respublikasi	78936,6	221350,9	605514,9	896617,9	1454574,0	1375637,4
Qoraqalpog'iston Res.	2181,7	6703,8	21661,9	30117,6	45658,5	43476,8
Andijon viloyati	4497,3	13914,0	38008,5	56488,3	90337,9	85840,6
Buxoro viloyati	4651,6	12368,6	31334,2	46126,2	71560,4	66908,8
Jizzax viloyati	2215,3	6730,8	18441,7	27545,4	43057,9	40842,6
Qashqadaryo viloyati	6944,1	17247,7	35351,5	49692,3	80658,3	73714,2
Navoiy viloyati	4325,6	10545,2	49780,4	68799,4	117279,8	112954,2
Namangan viloyati	3364,4	10826,9	27863,0	40565,1	68915,7	65551,3
Samarqand viloyati	6585,8	18513,7	43023,2	61627,7	99866,1	93280,3
Surxondaryo viloyati	3394,7	11114,4	24625,6	34385,3	54354,1	50959,4
Sirdaryo viloyati	1688,1	5076,9	12803,8	18210,8	28003,3	26315,2
Toshkent viloyati	7631,1	22089,0	64407,6	94789,9	146385,2	138754,1
Farg'ona viloyati	5417,5	16342,4	37216,2	56315,9	91333,0	85915,5
Xorazm viloyati	2888,6	8940,4	21315,4	32541	51261,0	48372,4
Toshkent shahri	10412,0	29847,4	95247,8	149646,2	281147,4	270735,4

Respublika hududlarida yaratilgan YaHM hajmi bo'yicha 2024-yil holatiga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich sifatida Toshkent shahri (281147,4 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, keyingi o'rinni Toshkent viloyati (146385,2 mlrd.so'm), Navoiy viloyati (117279,8 mlrd.so'm), Samarqand viloyati (99866,1 mlrd.so'm), Farg'ona viloyati (91333,0 mlrd.so'm), Andijon viloyati (990337,9 mlrd.so'm) bilan ushbu viloyatlar band etganligini ko'rish mumkin. YaHM hajmi bo'yicha eng past o'rinlarni qayd etgan viloyatlar kesimida ko'radigan bo'lsak, Sirdaryo (28003,3 mlrd.so'm) viloyati hissasiga to'g'ri kelgan (2-jadval).

¹² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Mintaqalar bo'yicha aholi jon boshiga 2024-yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, ming so'mda¹³

2024-yil holatiga ko'ra, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Navoiy viloyati (133706,3 ming so'm), Toshkent shahri (55499,8 ming so'm) hamda Toshkent viloyati (45168,2) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha Surxondaryo viloyati (5114,1 ming so'm), Namangan viloyati (10313,0 ming so'm), Samarqand viloyati (10866,2 ming so'm), Qashqadaryo viloyati (10969,0 ming so'm) to'g'ri kelgan (2-rasm).

Respublikamiz mintaqalarini iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

mamlakatimiz mintaqalarida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini qayta inventarizatsiyadan o'tkazish orqali, kirib kelgan xorijiy korxonalarining iqtisodiy samaradorligi darajasini baholash va ularga imtiyozlar berish, soliq va boj to'lovlarini eksport ko'rsatkichlariga qarab belgilash;

mintaqalarda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalarida sanoatning eng maqbul klasterlik faoliyatini yaratish, sanoat tarmoqlariga jalb qilingan investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirish choralari ko'rish;

mintaqalarni o'zaro mutanosiblikda rivojlantirish maqsadida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat xususiy sheriklik asosida mablag'larni yo'naltirish;

mintaqalar sanoat tarmoqlarida chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish;

mintaqalarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlashga erishish;

mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga qayta ishlash sanoatini yo'lga quyish orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni ijrosini ta'minlash, Xorazm viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarni hamda har bir tuman va

¹³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

shaharning “o’sish nuqtalari” ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida “2022-2026 yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 154-sonli qarori qabul qilindi¹⁴.

Ushbu qarorning birinchi ustuvor maqsadi sifatida “Makroiqtisodiy ko’rsatkichlarni ta’minlash, yangi ish o’rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, shu orqali kambag‘allik va ishsizlikni qisqartirish” ga alohida e’tibor qaratish bo’yicha vazifalar alohida belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 154-sonli qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Xorazm viloyatida 2022-2026 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha maqsadli ko’rsatkichlar parametrlari belgilab berildi. Unga ko’ra, yalpi hududi mahsulot (YaHM) yaratishda ishtirok etadigan tarmoq va sohalarni rivojlantirish va hamda aholi jon boshiga uning salmog‘ini oshirish kabi vazifalar belgilab berildi.

3-jadval

Xorazm viloyatida 2022-2026 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha maqsadli ko’rsatkichlar¹⁵

№	Asosiy ko’rsatkichlar	O’lchov birligi	Jami	Yillar kesimida				
				2022	2023	2024	2025	2026
1.	Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	hajmi (trln.so‘m)	1,4 baravar	33,4	39,5	46,7	55,2	65,4
		o’sish (%)		107,3	107,1	107,4	107,6	107,7
1.1	aholi jon boshiga	ming so‘m	-	17047,0	19811,3	23023,7	26797,1	31207,0
2.	Sanoat mahsulotlari	hajmi (trln.so‘m)	1,4 baravar	15,3	17,1	19,2	21,6	25,3
2.1	aholi jon boshiga	o’sish (%)		107,8	107,4	107,9	108,1	112,4
3.	Hududiy sanoat mahsulotlari	hajmi (trln.so‘m)	1,3 baravar	6,0	6,7	7,3	8,2	9,5
3.1	aholi jon boshiga	o’sish (%)		104,3	105,7	105,4	107,2	111,5
4.	Iste’mol tovarlari	hajmi (trln.so‘m)	1,3 baravar	9,6	10,7	12,1	13,7	16,0
4.1	aholi jon boshiga	o’sish (%)		105,3	106,2	105,7	107,8	111,5
5.	Qishloq xo’jaligi mahsulotlari	hajmi (trln.so‘m)	1,1 baravar	25,2	25,9	26,7	27,7	28,7
5.1	aholi jon boshiga	o’sish (%)		103,2	103,2	103,5	103,6	103,7
6.	Xizmat ko’rsatish	hajmi (trln.so‘m)	3,1 baravar	13,1	17,9	23,3	29,0	34,9
6.1	aholi jon boshiga	o’sish (%)		150,0	134,5	127,2	122,0	119,0
7.	Qurilish ishlari	hajmi (trln.so‘m)	1,2 baravar	5,5	6,5	7,8	9,4	11,3
7.1	aholi jon boshiga	o’sish (%)		104,4	104,2	105,2	105,2	105,5

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.04.2022-yildagi “2022-2026 yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 154-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5939831>

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.04.2022-yildagi “2022-2026 yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 154-sonli qarori. 1-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-5939831>

Xorazm viloyatining rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra, YaHM hajmi 6,4 % ga o'sdi va 51261,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning dinamik o'sishi asosan, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida 103,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi 34,8 %), sanoatda 108,2 % (16,0 %), qurilishda 111,4 % (8,9 %), xizmatlar sohasida 107,8 % (40,3 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM 4,4 % ga o'sdi va 25452,4 ming so'mni tashkil etdi¹⁶. Shuningdek, YaHM hajmining 2022-2026 yillar kesimda 1,4 baravar oshirish, 2022-yilda 33,4 trln.so'mdan 2026-yilga qadar 65,4 trln.so'mga yetkazish rejalashtirildi (3-jadval).

Har bir hududning barqaror rivojlanishida hududning iqtisodiy-ekologik jihatlari hisobga olinishi lozim. Hududlarni rivojlantirishda iqtisodiy faoliyat va ekologik muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lib quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

1. Hududning iqtisodiy jihatlari:

hududning barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish – hududning iqtisodiy o'sishi bilan birga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida davlat siyosatini yuritish hamda hududiy strategik dasturlarni ishlab chiqish;

hududda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi – bunda hududda yer, suv, tabiiy resurslardan samarali va barqaror foydalanish choralarini ko'rish;

hududda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini ishga solish;

hududning infratuzilma va investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish – bunda hududiy transport, energiya ta'minoti, sanoat bazasi va boshqa omillar;

hududning mahalliy xom ashyo bazasini rivojlantirish – bunda hududiy iqtisodiyotni rag'batlantirish choralarini ko'rish;

hududda "Yashil iqtisodiyoti" ni joriy etish – bunda qayta tiklanuvchi energiyani joriy etish, kam uglerodli texnologiyalarni tadbiq qilish;

2. Hududning ekologik jihatlari:

hududda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishda – bunda havo sifatini saqlash, suv va yer ifloslanishi cheklash choralarini ko'rish;

hududda biologik xilma-xillikni saqlash – hududda mavjud fauna va flora dunyosini muhofaza qilish;

hududda ekologik xavfsizlik – bunda sanoat chiqindilari, radioaktiv yoki zaharli kimyoviy moddalar tashlanmalari, CO2 emissiyasini kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish;

hududlarda ekologik audit va monitoringni yuritish – bunda hududdagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlarining atrof-muhitga ta'sirini kuzatish va baholab borish;

hududda iqlim o'zgarishining ta'sirini yumshatish – hudud iqlim o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni doimiy monitoring qilish va bartaraf etish choralarini ko'rish.

Xorazm viloyatining qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni tahliliy ko'radigan bo'lsak, viloyat bo'yicha 2010-yilda qishloq xo'jaligiga ajratilgan yer maydoni 228,5 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-2021 yillarga kelib yer maydonlari qisqardi. 2022-yilga qishloq xo'jaligiga ajratilgan yer maydonlari

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. T.:2025 - 49-bet.

kengaya boshladi. Hududda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini tahlil qiladigan bo'lsak, 1932,2 mlrd.so'mlik mahsulotlar yetishtirilgan bo'lib, shuning 51 % i dehqonchilik mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 49 % i chorvachilik mahsulotlari tashkil etgan.

2024-yilga kelib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 28490,6 mlrd.so'mlik mahsulotlar yetishtirilgan holda 2023-yilga nisbatan 2244,2 mlrd.so'mga ortganligini ko'rish mumkin. Biroq, hudud bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarining o'sish sur'ati 2021-2023 yillarda qayd etilgan. 2024-yilni 2023-yilga nisbatan 1,5 % punktga kamayganligini ko'rish mumkin (4-jadval).

Tadqiqotimizda biz bevosita mintaqaning iqtisodiy muammolari bilan ekologik muammolarini ham tadqiq qilishni o'z oldimizga asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilab oldik. Shuningdek, hududiy jihatdan ekologik muammolarni tadqiq etishni maqsad qilib belgilab oldik.

4-jadval

Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlili¹⁷

<i>Ko'rsatkichlar</i>	2010 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024-yilni 2023-yilga nis., (+;-)
Qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan maydoni, ming gektar	228,5	216,8	210,0	240,6	255,4	257,6	2,2
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm	1932,2	16258,9	19311,7	23144,5	26246,4	28490,6	2244,2
<i>Shu jumladan:</i>							
<i>dehqonchilik</i>	995,4	7306,7	8649,5	10676,7	11983,1	12750,4	767,3
<i>chorvachilik</i>	936,8	8952,2	10662,2	12467,8	14263,3	15740,2	1476,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	102,5	101,7	102,9	103,9	104,4	102,9	-1,5
<i>Shu jumladan:</i>							
<i>dehqonchilik</i>	101,0	101,0	104,5	103,8	106,0	102,7	-3,3
<i>chorvachilik</i>	104,4	102,3	101,5	103,9	103,0	103,1	0,1

Xorazm viloyati bo'yicha bo'yicha ekologik muammolarga to'xtalib o'tishni va analitik va kritik nuqta-nazardan tahlil qilishni ma'qul topdik. Xorazm viloyati bo'yicha sanoat, qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari va barcha turdagi ishlab chiqarish korxonalaridan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi bo'yicha Xorazm viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilda hudud bo'yicha 4,76 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar atmosferaga chiqarilgan bo'lsa, hudud bo'yicha eng katta ulushni Urganch shahri (3,97 ming tonna) deyarli 83,5 % ini egallagan.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2010-2021 yillarda davomida atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori hudud bo'yicha ortib borgan. 2022-2024 yillarga kelib o'tgan yillarga nisbatan pasayganligini ko'rish mumkin. 2024-yil holatiga ko'ra hudud bo'yicha 3,71 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar atmosferaga chiqarilgan, joriy davrda Urganch shahrining ulushi (1,65 ming tonna) 44,5 % ini egallagan (5-jadval).

Umuman olganda hudud bo'yicha atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar avtomobil transportining yildan-yilga ko'payishi (ayniqsa, Urganch shahrida). Aynan, CO₂ (karbon oksidi), N₂O (azot oksidi), CH₄ (metan gazi) va boshqa turdagi zaharli kimyoviy moddalarning transport vositalari, sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi texnikalari, energetika manbalari, maishiy va xo'jalik yoqilg'i korxonalari hamda qurilish obyektlaridan chiqayotgan tashlanmalar miqdori ortib bormoqda. Atrof-muhitni va ekologik vaziyatni izdan chiqishi va ifloslanishida antropogen omillarning ta'siri yildan-yilga ortib bormoqda. Xorazm viloyati bo'yicha ham ko'radigan bo'lsak, hududda aholi tomonidan tashlangan chiqindilar hajmida ortish tendensiyasi kuzatilgan.

5-jadval

Xorazm viloyati bo'yicha atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, (ming tonna)¹⁸

No	Hududlar	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1.	Xorazm viloyati	4,76	4,96	6,92	7,23	4,49	3,38	3,71
2.	Urganch shahri	3,97	3,67	4,67	5,04	2,76	1,52	1,65
3.	Xiva shahri	-	-	0,14	0,17	0,14	0,12	0,13
4.	Bog'ot tumani	0,05	0,04	0,04	0,09	0,06	0,06	0,07
5.	Gurlan tumani	0,04	0,04	0,14	0,15	0,13	0,12	0,13
6.	Qo'shkupir tumani	0,08	0,08	0,14	0,12	0,10	0,12	0,12
7.	Urganch tumani	0,08	0,09	0,29	0,40	0,27	0,24	0,30
8.	Xazorasp tumani	0,30	0,71	0,18	0,13	0,09	0,11	0,12
9.	Tuproqqala tumani			0,32	0,40	0,39	0,49	0,51
10.	Xonqa tumani	0,06	0,08	0,18	0,15	0,15	0,17	0,19
11.	Xiva tumani	0,02	0,02	0,11	0,09	0,08	0,11	0,12
12.	Shovot tumani	0,13	0,08	0,15	0,17	0,14	0,15	0,16
13.	Yangiariq tumani	0,02	0,13	0,48	0,18	0,12	0,12	0,13
14.	Yangibozor tumani	0,02	0,02	0,06	0,15	0,06	0,05	0,07

2020-yilda hududda 511 ming tonna chiqindilar aholi tomonidan tashlangan bo'lsa, 2024-yilga kelib uning hajmi 6,9 % ga yoki 35 ming tonnaga ortganligini ko'rish mumkin. Aytish joizki, yildan-yilga hududda aholi soni ortib boradi va mutanosib ravishda chiqindilar hajmi ham ortadi, shu bois, chiqindilarni qayta ishlash va undan ikkilamchi mahsulotlar tayyorlash bugungi kunda barcha hududlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi (6-jadval).

6-jadval

Xorazm viloyati bo'yicha aholi tomonidan tashlangan chiqindilar hajmi, (ming tonna)

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

№	Hududlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024 yilni 2023 yildan nisbatan farqi	
							(+;-)	% da
Xorazm viloyati		511	518	527	536	546	10	101,9
1.	Urganch shahri	39,4	39,7	40	41	42	1	102,4
2.	Xiva shahri	25	25,5	26	26,5	27	0,5	101,9
3.	Bog‘ot tumani	44,8	45,6	46,4	47	48	1	102,1
4.	Gurlan tumani	40,4	41	41,5	42,3	43	0,7	101,7
5.	Qo‘shkupir tumani	47	48	48,2	49	50	1	102,0
6.	Urganch tumani	54	55	56	57	58,5	1,5	102,6
7.	Xazorasp tumani	67,8	54	54	55	56,4	1,4	102,5
8.	Tuproqqala tumani	-	15	15,5	15,8	16	0,2	101,3
9.	Xonqa tumani	51	51,5	52,5	53,3	54	0,7	101,3
10.	Xiva tumani	40	40,3	41	41,6	42,4	0,8	101,9
11.	Shovot tumani	46	47	48	48,5	49,4	0,9	101,9
12.	Yangiariq tumani	31,6	32	32,5	33	34	1	103,0
13.	Yangibozor tumani	23,8	24	24,5	25	25,3	0,3	101,2

O‘zbekiston Respublikasi hududlarini ekologik darajasiga qarab quyidagicha tavsiflanadi:

- o‘rtacha ekologik vaziyatli hududlar – Andijon, Namangan, Farg‘ona, Jizzax va boshqalar;

- murakkab vaziyatli hududlar – Qashqadaryo, Navoiy va boshqalar;

- o‘ta murakkab vaziyatli hududlar – Orolbo‘yi hududlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati).

Dissertatsiyaning “**Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlan-tirishning iqtisodiy-ekologik mexanizm-larini takomillashtirish yo‘llari**” deb nomlangan uchinchi bobida mintaqada raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda ekologik vaziyatni yaxshilash yo‘llari, Xorazm viloyatining iqtisodiy-ekologik vaziyatini anketa-so‘rovnomalari asosida ekspert baholash hamda Xorazm viloyatining iqtisodiy-ekologik rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning prognoz senariylari ishlab chiqilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi mintaqa iqtisodiyotini ustuvor darajada rivojlanishi bilan bog‘liq. Shu jihatdan, milliy iqtisodiyotni ustuvor darajada rivojlantirish har tomonlama iqtisodiyotning muhim tarmoq va yo‘nalishlari hamda hududlarning iqtisodiy-ekologik holatini, hududlar ishlab chiqarishining yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlari bilan ta‘minlanganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Biroq, bugungi kunga kelib global iqlim o‘zgarishlari kutilmagan darajada iqtisodiyotga ta‘siri ortib bormoqda.

O‘zbekistonning g‘arbiy hududlari (Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iton Respublikasi) gidrologik qurg‘oqchilikka (asosan daryolarning yuqori suv havzalarida yog‘ingarchilik kamligi sababli qishda suv tanqisligi), markaziy janubiy viloyatlari esa (Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) meteorologik qurg‘oqchilikka (havodagi namlikning kamayishi hamda haroratning ko‘tarilishi) moyilligi yuqori hisoblanadi¹⁹.


Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, kuchli meteorologik qurg‘oqchilik eng pessimistik ssenariyaga ko‘ra, 2090-yillarga borib, ushbu davrning deyarli 87 % ida

¹⁹ Markaziy intellektual agentligi, (2020). Jahon faktlar kitobi.

sodir bo'lishi mumkin, bu xavf-xatarlar odatda O'zbekiston g'arbida (Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi) hududlarida yuqoriroq bo'lishi kuzatilgan²⁰.

Bugungi kundagi asosiy muammolardan biri hududlarning ekologik vaziyatini o'rganish va baholashda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, Xorazm viloyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida hududdagi ekologik vaziyatni aniqlash va yaxshilash maqsadida raqamli GAT texnologiyalardan foydalangan holda xaritalar tuzildi.

Xususan, Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy g'arbida qismida joylashgan, Amudaryoning quyi oqimining chap sohilidagi tekislikda joylashgan, shimol va shimoliy sharqdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, janubdan va janubiy-g'arbdan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaralanadi. Iqlimi keskin kontinentla, qishi sovuq, qor kam yog'adi, harorat – 30 °C gacha pasayadi, yozi quruq va issiq, harorat + 45 °C gacha qiziydi²¹.



3-rasm. Xorazm viloyati bo'yicha 2015-2024 yillar oralig'ida o'rtacha turli ekologik muammolarning jamlangan xaritasi²²

Xorazm viloyati bo'yicha 2015-2024 yillar oralig'idagi o'rtacha turli ekologik muammolarning jamlangan xaritasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, (1-3Kam muam ≤ 4-5O'rt muam ≤ 6-7Ko'p muam ≤ 8-9Juda ko'p muam) tabaqalashgan holda keltirib o'tilgan bo'lib, xaritadan ko'rinib turibdiki, hududning turli ekologik muammolari ko'proq 6-7 atrofida ya'ni, ko'proq ekologik muammolarga duch kelmoqda. Bu vaziyat yanada og'irlashsa, hududning iqtisodiy va ekologik holati yanada yomonlashishiga sabab bo'ladi (3-rasm).

²⁰ Jahon banki (2022). Farovon va inklyuziv kelajak sari: O'zbekiston uchun ikkinchi tizimli mamlakat diagnostikasi.

²¹ <https://xorazm.uz/uz/viloyat-haqida/viloyat-haqida-malumot/200-horazm-viloyati-trisida-umumij-malumot.html>


²² Xaritalar «Google Earth Engine», «ArGIS» raqamli platformalaridan foydalangan holda tuzilgan.

Xorazm viloyati bo'yicha turli ekologik vaziyatni baholashning tavsiyaviy shkalasi²³

№	Baholash darajalari	Baholarning ta'sir darajasi
1.	Juda ko'p muammolar	$8,0 < EMD_{\text{juda ko'p muam}} \leq 9,0$
2.	Ko'p muammolar	$6,0 < EMD_{\text{ko'p muam}} \geq 7,0$
3.	O'rtacha muammolar	$4,0 < EMD_{\text{o'rta muam}} \geq 5,0$
4.	Kam muammolar	$1,0 < EMD_{\text{kam muam}} \geq 3,0$

Xorazm viloyatida turli ekologik xavflarning ortishi ta'sirida aholining migratsiya jarayonini tezlashtiradi, shuningdek, aholi o'rtasida turli kasalliklarga chalinish, yuqumli va boshqa turdagi kasalliklarning avj olishiga sabab bo'ladi. 4-rasmda hudud bo'yicha turli ekologik xavflarning 2024-yil holatini ko'radigan bo'lsak, qurg'oqchilik darajasi 12,17 % ni, suv tanqisligi 11,44 % ni, yerlar unumdorligi darajasi 0,17 % ni tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlarning yildan-yilga ortishi aholi soniga, yashash muhitiga, aholi daromadlariga keskin ta'sir qiladi.

Xorazm viloyatining ekologik vaziyatini uzoq yillik statistik ma'lumotlarini tahlil qilish asosida xalqaro tajribalarga asoslangan holda ekologik vaziyatni baholashning tavsiyaviy shkalasi ishlab chiqildi. 7-jadvalda tadqiqot natijalari asosida to'rtta baholash shkalasi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu baholash shkalalari 1,0 dan 9,0 gacha tavsiyaviy ahamiyatga molik holda tadqiqot obyekti bo'lgan Xorazm viloyatini hududiy jihatdan ekologik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.



4-rasm. Xorazm viloyatida turli ekologik xavflarning 2024-yilda hudud maydoniga nisbatan ko'rsatayotgan zarari²⁴

²³ Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

Tadqiqotda Xorazm viloyatidagi iqtisodiy-ekologik holatlar o'rganilib, mavjud muammolar aniqlandi va ularning yechimlari ya'ni, viloyatni iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Xususan, viloyatni iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish uchun "Hududda ekologik vaziyat yomonlashishiga ta'sir qilayotgan korxonalarining ta'sir chegarasiga mutanosib ravishda moddiy javobgarlikka tortish va aksincha holatda rag'batlantirishning samarali mexanizmini yo'lga qo'yish" taklifi shular jumlasidan.

Ushbu taklifni ilmiy asoslash uchun soha mutaxassislari fikrlari o'rganilib, xulosalar "Ekspert baholash" usuli asosida baholandi. Buning uchun viloyatni iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan "Hududda ekologik vaziyat yomonlashishiga ta'sir qilayotgan korxonalarining ta'sir chegarasiga mutanosib ravishda moddiy javobgarlikka tortish va aksincha holatda rag'batlantirishning samarali mexanizmini yo'lga qo'yish" taklifiga alternativ yana quyidagi taklif variantlari tayyorlandi:

1. Hudud iqtisodiy barqarorligini oshirishda davlat korxonalaridan ko'ra, xususiy korxonalariga imtiyozlar berish va hududiy iqtisodiy o'sishga erishish;
2. Hududda faoliyat yuritayotgan korxonalarni atrof-muhitga yetkazayotgan zararlarini monitoring qilish va aniqlangan zararlar ta'sirini iqtisodiy baholash;
3. Hududda ekologik vaziyat yomonlashishiga ta'sir qilayotgan korxonalarining ta'sir chegarasiga mutanosib moddiy javobgarlikka tortish va aksincha holatda rag'batlantirishning samarali mexanizmini yo'lga qo'yish;
4. Hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi ekinlarni ixtisoslashtirish.

8-jadval

Xorazm viloyati hududini iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflarga ekspertlar tomonidan qo'yilgan ballar²⁵

№	Baholanayotgan takliflar	Ekspertlar				
		1	2	3	4	5
1.	Hudud iqtisodiy barqarorligini oshirishda davlat korxonalaridan ko'ra xususiy korxonalariga imtiyozlar berish va hududiy iqtisodiy o'sishga erishish	2	2	1	2	4
2.	Hududda faoliyat yuritayotgan korxonalarni atrof-muhitga yetkazayotgan zararlarini monitoring qilish va aniqlangan zararlar ta'sirini iqtisodiy baholash	3	3	4	3	2
3.	Hududda ekologik vaziyat yomonlashishiga ta'sir qilayotgan korxonalarining ta'sir chegarasiga mutanosib ravishda moddiy javobgarlikka tortish va aksincha holatda rag'batlantirishning samarali mexanizmini yo'lga qo'yish	5	4	5	5	5
4.	Hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi ekinlarni ixtisoslashtirish	4	5	3	4	3

Yuqoridagi takliflarning afzalini tanlab olish ya'ni, asosiy taklif varianti (uchinchi taklif) ni ilmiy asoslash uchun sohaning yetakchi mutaxassislardan tashkil topgan ekspertlar guruhiga taqdim etildi.

²⁴ Muallif hisob-kitoblari

²⁵ Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Ekspertlarga “Xorazm viloyati hududini iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlardan qaysi biri samarali hisoblanadi?” deb, asosiy savol qo‘yildi.

Ushbu savolga beriladigan ekspertlar javoblarini baholash uchun “5” ballik baholash mezonini qabul qilindi va ekspertlar tomonidan Xorazm viloyati hududini iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan to‘rtta taklif ekspertlar tomonidan baholandi (8-jadval).

Ma’lumki, ekspert baholash usulini qo‘llash jarayonida asosan ekspertlarni miqdoriy jihatdan tanlash va ekspert guruhlarini shakllantirish, ularning kompetentlik darajasini baholash, ekspertlar qarorlarining kelishuvchanlik darajasini aniqlash, ekspertlar tomonidan ma’lumotlarni qayta ishlash va olingan natijalar yuzasidan muayyan qarorlar qabul qilish kabi masalalarga asosiy e’tibor qaratiladi.

Anketa so‘rovi ma’lumotlariga asoslanib, umumiy daraja (rang) matritsasi va xulosa darajali (rang) matritsasi tuziladi (9-jadval).

9-jadval

Daraja (rang) lar matritsasi²⁶

Ekspert/ Taklif	1-eksp.	2-eksp.	3-eksp.	4-eksp.	5-eksp.	Jami daraja (rang) lar	d	d ²
1	1	1	1	1	3	7	-5,5	30,25
2	2	2	3	2	1	10	-2,5	6,25
3	4	3	4	4	4	19	6,5	42,25
4	3	4	2	3	2	14	1,5	2,25
Σ	10	10	10	10	10	50		81,0

Ekspert baholashda “mutaxassislar fikrining kelishuvchanligi” juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar fikrining kelishuvchanlik darajasini baholash uchun Kendallning “Konkordatsiya koeffitsiyenti” dan foydalaniladi:

$$W = \frac{12S}{m^2(n^3 - n)} \quad (1)$$

bu yerda, W - konkordatsiya koeffitsiyenti, m - ekspertlar soni, n - obyektlar soni, S - konkordatsiya koeffitsiyentidagi miqdoriy kattaligi.

$$S = \sum_{i=1}^m \left(\sum_{j=1}^n r_{ij} - \bar{r} \right)^2 \quad (2)$$

bu yerda, r_{is} – i -obyektga j -ekspert tomonidan berilgan baho yoki rangi.

Ekspertlar fikri kelishuvchanlik darajasining sifatini baholash uchun Xarringtonning quyidagi verbal - sonli shkalasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Konkordatsiya koeffitsiyentining ahamiyatligini baholash uchun Pearsonning moslik χ^2 - mezonini qabul qilinadi. χ^2 - taqsimot $j = n-1$ erkinlik darajasi bilan quyidagi qiymatni qabul qiladi:

$$\chi^2 = \frac{12S}{mn(n+1)} = m(n-1)W \quad (3)$$

²⁶ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Konkordatsiya koeffitsiyenti bo'yicha baholash mezonlari²⁷

№	Miqdoriy chegaralar	Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajalari
1.	$0 \leq W < 0,2$	Kelishuvchanlik juda past
2.	$0,2 \leq W < 0,3$	Kelishuvchanlik past
3.	$0,3 \leq W < 0,6$	Kelishuvchanlik o'rta
4.	$0,6 \leq W < 0,8$	Kelishuvchanlik yuqori darajada
5.	$0,8 \leq W \leq 1,0$	Kelishuvchanlik juda yuqori darajada

Agar $\chi_{his}^2 > \chi_{jad}^2$ bo'lsa, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi o'rirlidir, aks holda bunday kelishuvchanlik ahamiyatsiz hisoblanadi.

Yuqoridagi formula yordamida ekspertlar fikrlarining kelishuvchanlik darajasi, ya'ni konkordatsiya koeffitsiyenti (W) hisoblanadi. Bu jarayonda tanlangan ekspertlar soni $m=5$ ta va baholanayotgan obyektlar soni $n=4$ tadan iborat.

$$W = \frac{12 \cdot 81}{5^2(4^3 - 4)} = 0,648$$

Olingan tahlil natijalarining ko'rsatishicha, yo'nalishlar bo'yicha ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi (W), ya'ni konkordatsiya koeffitsiyenti 0,648 qiymatni tashkil etgani holda ushbu qiymat Xarringtonning verbal - sonli shkalasi bo'yicha to'rtinchi tartibli miqdoriy chegarasiga to'g'ri kelib, ekspertlar qarori "Kelishuvchanlik yuqori darajada" mezoni bilan baholandi.

O'zgartirilgan daraja (rang) matritsasi²⁸

№	Baholanayotgan takliflar	Ekspertlar					Σ	Qaror vazni
		1	2	3	4	5		
1.	Hudud iqtisodiy barqarorligini oshirishda davlat korxonalaridan ko'ra xususiy korxonalarga imtiyozlar berish va hududiy iqtisodiy o'sishga erishish	3	3	4	3	1	14	0,4516
2.	Hududda faoliyat yuritayotgan korxonalarni atrof-muhitga yetkazayotgan zaralarini monitoring qilish va aniqlangan zaralar ta'sirini iqtisodiy baholash	2	2	1	2	3	10	0,3226
3.	Hududda ekologik vaziyat yomonlashishiga ta'sir qilayotgan korxonalarining ta'sir chegarasiga mutanosib ravishda moddiy javobgarlikka tortish va aksincha holatda rag'batlantirishning samarali mexanizmini yo'lga qo'yish	0	1	0	0	0	1	0,03226
4.	Hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi ekinlarni ixtisoslashtirish	1	0	2	1	2	6	0,1935
Jami:							31	1

Ushbu natijaning ahamiyati Pearsonning moslik mezoni (χ^2) bilan baholanadi.

²⁷ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

²⁸ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

$$\chi^2 = 5 \cdot (4 - 1) \cdot 0,648 = 9,72$$

Pearsonning moslik mezoni bo'yicha baholash natijalariga ko'ra, $\chi_{his}^2 = 9,72$ ($\chi_{jad}^2 = 7,82$) ga teng bo'lib, $\chi_{his}^2 > \chi_{jad}^2$ shartini qanoatlantiradi. Demak, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi o'rinli.

Ekspertlar baholari yoki rangining $S_{ij} = X_{\max} - X_{ij}$ formulasidan foydalanib, o'zgartirilgan darajalar matritsasi tuzib olinadi (bu yerda, $X_{\max} = 5$). Ya'ni, ekspertlar guruhining qarori tayyorlanadi (11-jadval).

Yuqoridagi 11-jadvalda darajalar (ranglar) yig'indisi asosida ko'rib chiqilgan parametrlarning vazn ko'rsatkichlari hisoblanib, bunda eng kichik vaznga ega baholash obyekti eng yuqori reytingga ega bo'lgan takliflar sifatida qabul qilinadi. Bundan kelib chiqadiki, Xorazm viloyati hududini iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish uchun taklif etilgan chora-tadbirlardan "Hududda ekologik vaziyat yomonlashishiga ta'sir qilayotgan korxonalarining ta'sir chegarasiga mutanosib moddiy javobgarlikka tortish va aksincha holatda rag'batlantirishning samarali mexanizmini yo'lga qo'yish" taklifiga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Demak, ushbu taklif ilmiy jihatdan asosli deb hisoblanadi.

Xorazm viloyatida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (SCH) bo'yicha vaqtli qatorlarda trend, mavsumiylik, tasodifiylik va sikllik komponentalari mavjud bo'lganligi boisdan ushbu ko'rsatkich prognozlari ARIMA modeli asosida ishlab chiqish maqsadga muvofiq. ARIMA modelining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\Delta^d SCH_t = c + \sum_{i=1}^m a_i \Delta^d SCH_{t-1} + \sum_{j=1}^k a_j e_{t-j} + e_t \quad (4)$$

bu yerda, c, a_i, a_j – modelning noma'lum parametrlari, Δ^d – d tartibli vaqtli qatorlar ayirma operatori.

Baholash natijalariga asosan prognoz qilish uchun atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (SCH) bo'yicha ($SCH_t = -0,106 - 0,24SCH_{t-1}$) modeli optimal variant sifatida tanlab olindi. Hamda ushbu model asosida SCH ning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan pessimistik, dinamik va optimistik prognoz senariylari ishlab chiqildi (12-jadval).

12-jadval

Xorazm viloyatida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar bo'yicha prognoz senariylari²⁹

Ko'rsatkich	Senariylar	2025	2026	2027	2028	2029	2030
Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, ming t.	Pessimistik	4,3	4,3	4,2	4,1	4,0	3,9
	Dinamik	4,1	4,1	4,0	3,9	3,7	3,6
	Optimistik	3,9	3,8	3,7	3,6	3,5	3,4

²⁹ Muallif hisob-kitoblari.

Xorazm viloyatida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar bo'yicha ishlab chiqilgan prognoz senariylaridan ham dinamik senariy optimal senariy deb topildi. Dinamik senariy prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilga borib viloyatda bo'yicha atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar 3,6 ming tonnaga tashkil etishi mumkin. 2030-yilga borib (2024-yilga nisbatan) Xorazm viloyatida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori 1,24 baravarga kamayishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. Uslubiy yondashuvga ko'ra, "mintaqaviy ekologik siyosat" tushunchasining mazmuni mintaqaviy darajada mamlakatning turli hududlaridagi ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, hududiy iqlim sharoitlarini hisobga olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga oida nazariy va uslubiy materiallardan talabalar uchun tavsiya etilgan o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanildi.

2. Mintaqalarning barqaror rivojiga ta'sir etayotgan omillar mavjudligi tadqiqotlarimiz natijasi o'z isbotini topdi. Bevosita, muammoli hududlarni tabaqalash nuqtai-nazardan quyidagilarga ajratish mumkin, ya'ni: rivojlanishi orqada bo'lgan hududlar; iqtisodiy deprimsiya holatida bo'lgan hududlar; ekologik xavfli hududlar; yangi tashkil etilgan chegaraviy hududlar; milliy, diniy, etnik nizoli hududlar hamda ekstremal tabiiy sharoitda sanoatni rivojlantirayotgan hududlarga ajratildi.

3. Mintaqaviy jihatdan resurslar cheklangan hududlarda qo'shni hududlardagi qayta ishlanmayotgan resurslarni qayta ishlash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish va mehnat resurslari salohiyatini hisobga olgan holda yangi hududlararo loyihalarni amalga oshirish. Shuningdek, viloyat tumanlarida chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish.

4. Mintaqaviy sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida kooperatsion aloqalarni shakllantirish, mintaqani iqtisodiy-ekologik rivojlantirish maqsadida institutsional islohotlarni izchil davom ettirish.

5. Xorazm mintaqasi boshqa mintaqalarga nisbatan yer va suv resurslarining cheklanganligi, cho'l hududlarining ko'pligi bilan alohida ajralib turadi. Shu bois, mintaqadagi asosiy muammo aholi uchun iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, mamlakat mintaqalarida zich joylashgan ayrim sanoat obyektlarini ko'chirish maqsadga muvofiqdir.

6. Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sish sur'atini tahliliy ko'radigan bo'lsak, 2024-yilga kelib 51261,0 mlrd.so'mni yoki o'sish darajasi o'tgan yilga nisbatan 106,4 % ni tashkil etgan. Respublikadagi ulushi 3,5 % ni tashkil etgan. Shuningdek, eng yuqori ulush jihatdan 2024-yilni 2016-yilga taqqoslaydigan bo'lsak, 2016-yilda Xorazm viloyatining YaHM dagi ulushi 4,0 % ni tashkil etgan holda 0,5 % ga pasayganligini ko'rish mumkin. Hudud bo'yicha ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

7. Xorazm viloyatida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishda – bunda havo sifatini saqlash, suv va yer ifloslanishi cheklash choralarini ko‘rish, hududda biologik xilma-xillikni saqlash – hududda mavjud fauna va flora dunyosini muhofaza qilish, hududda ekologik xavfsizlik – bunda sanoat chiqindilari, radioaktiv yoki zaharli kimyoviy moddalar tashlanmalari, CO₂ emissiyasini kamaytirish choratadbirlarini ko‘rish, hududlarda ekologik audit va monitoringni yuritish – bunda hududdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlarining atrof-muhitga ta‘sirini kuzatish va baholab borish, hududda iqlim o‘zgarishining ta‘sirini yumshatish – hudud iqlim o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillarni doimiy monitoring qilish va bartaraf etish choralarini ko‘rish.

8. Xorazm viloyati hududini iqtisodiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish bo‘rsida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida ishlab chiqilgan “Hududda ekologik vaziyat yomonlashishiga ta‘sir qilayotgan korxonalarining ta‘sir chegarasiga mutanosib moddiy javobgarlikka tortish va aksincha holatda rag‘batlantirishning samarali mexanizmini yo‘lga qo‘yish” taklifiga ekspertlar tomonidan ko‘rsatilgan ballar ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Demak, ushbu taklif ilmiy jihatdan asosli deb topildi.

9. Xorazm viloyati bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga ekologik masalalarga ham alohida ahamiyat qaratilishi kabi vazifalarning prognoz qiymatlari iqtisodiy ham ekologik nuqtai-nazardan prognoz qilingan. Tadqiqotda mintaqaning iqtisodiy-ekologik rivojlanishini 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

10. Hududlarda mavjud korxonalarni modernizatsiya va diversifikatsiyalash jarayonini tezlashtirish, yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalash amaliyotini tezlashtirish, ekologiyaga zarar keltirayotgan sanoat korxonalarini uchun xalqaro ISO-14001 standartiga o‘tish va uning majburiylikini singdirish mexanizmini takomillashtirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ
РАЙХАНА БЕРУНИ**

САПАЕВ МАХСУДБЕК КАРИМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНА
(на примере Хорезмской области)**

08.00.12 – Региональная экономика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ургенч – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.1.PhD/Iqt5190.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Бурханов Ақтам Усманович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Бахтиёр Рузметов,**
доктор экономических наук, профессор

Халмуротов Фозил Саробаевич,
доктор философии по экономическим наукам, доцент

Ведущая организация: **Каракалпакский государственный университет**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в _____:_____ часов на заседании Научного совета при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни DSc.03/27.09.2024.I.55.03 Адрес 220200, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (998-62) 224-6700; факс: (998-62) 224-6700; e- mail: info@urdu.uz

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни (регистрационный номер _____). Адрес 220200, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (998-62) 224-6700; факс: (998-62) 224-6700; e- mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.

(протокол рассылки № _____ от «___» _____ 2025 года).

И. С. Абдуллаев

Председатель научного совета, по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Т. Ж. Рахимов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD., доцент

Б. Рузметов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Возрастающее влияние глобальных климатических изменений в мировом масштабе напрямую создает конфликтные ситуации, связанные с окружающей средой и экологией. В частности, в 2023 году стихийные бедствия нанесли экономический ущерб в размере 280 млрд. долларов США, что выше среднего показателя в 89 млрд. долларов США за предыдущие 10 лет³⁰. Изменение климата сегодня становится глобальной угрозой, что приводит к усилению геополитических конфликтов в странах мира. Среди вопросов, поднимаемых в рамках Конференции ООН по изменению климата (COP-29) по проблемам климата, одной из основных целей, обозначенных в Парижском соглашении, является недопущение быстрого повышения температуры воздуха в регионе и удержание ее в пределах 1,5-2 °С в течение текущего столетия. Это еще больше повышает актуальность изучения экономических и экологических проблем регионов в процессе разработки мер по борьбе с изменением климата и обеспечению устойчивого развития.

Глобальное потепление — это усиление парникового эффекта на поверхности Земли, вызванное увеличением концентрации углекислого газа (CO₂) и других парниковых газов в атмосфере. Согласно наблюдениям последних десятилетий, средняя температура повысилась на 1,55 градуса, что стало причиной возникновения социально-экономических и экологических проблем в различных регионах³¹. Смягчение последствий климатических изменений, влияющих на развитие отраслей и секторов экономики на региональном уровне, требует модернизации и диверсификации промышленности действующих в регионах производственных предприятий на основе принципов “зеленой экономики”. Также необходимо развивать рынок “зеленых сертификатов” для промышленных предприятий регионов и внедрять практику “экологической маркировки”. Всё это требует последовательного продолжения научных исследований по развитию регионов с учётом экономико-экологических факторов, влияющих на устойчивое развитие.

В стратегии «Узбекистан-2030» в целях решения региональных проблем определены такие цели и задачи, как коренное улучшение экологической обстановки в республике, устранение экологических проблем, влияющих на жизнь человека, стабилизация экологической ситуации в Приаральском регионе, предотвращение негативного воздействия изменения климата, сохранение биологического разнообразия, предотвращение загрязнения атмосферного воздуха. Одной из приоритетных задач государственной политики является контроль за процессами, связанными с изменением климата, выявление внешних и внутренних воздействующих факторов и совершенствование механизма принятия правовых мер по ним. Быстро развивающиеся отрасли промышленности в нашей стране наносят серьёзный ущерб окружающей среде и экологии. Однако никто не оценивал, какое воздействие этот ущерб окажет как на нынешнее, так и на будущие поколения.

³⁰ <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2024-01.html>

³¹ Всемирная метеорологическая организация (ВМО). <https://wmo.int/ru/media/news>

В этом отношении, наряду с повышением экономического потенциала регионов республики, необходимо также уделять особое внимание экономико-экологическим вопросам. Одними из актуальных задач сегодняшнего дня являются принятие мер по обеспечению региональной экологической безопасности, обеспечение экологического баланса наряду с региональным развитием производства, а также разработка научно обоснованных предложений и рекомендаций.

